

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YERDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Asanova Iroda Dilmuxammad qizi

TIQXIMMI Milliy tadqiqot universiteti 3-bosqich talabasi

irodaasanova196@gmail.com

Kubayev Djasur Abdumuminovich

Ilmiy rahbar; TIQXIMMI Milliy tadqiqot universiteti assistenti

j.kubayev@tiame.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18480029>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish masalalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yerning umummilliy boylik sifatidagi o'rni, undan oqilona va samarali foydalanishning huquqiy asoslari, shuningdek, yer resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan normativ-huquqiy mexanizmlar yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Yer kodeksi normalari asosida yer bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning huquqiy poydevori tahlil etilgan. Shuningdek, yerdan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar, jumladan yer degradatsiyasi, meliorativ holatning yomonlashuvi hamda maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etishning huquqiy yo'llari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yer qonunchiligini modernizatsiya qilish, ekologik talablarni kuchaytirish va yer resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. yer resurslari, yerdan foydalanish, yer muhofazasi, yer huquqi, Yer kodeksi, Konstitutsiya, yer munosabatlari, yer monitoringi, yer kadastr, ekologik barqarorlik, huquqiy tartibga solish, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы вопросы правового регулирования использования и охраны земель в Республике Узбекистан. В ходе исследования раскрывается роль земли как общенационального богатства, правовые основы её рационального и эффективного использования, а также нормативно-правовые механизмы, направленные на охрану земельных ресурсов. На основе норм Конституции Республики Узбекистан и Земельного кодекса проанализированы правовые основы регулирования земельных отношений. Кроме того, выявлены актуальные проблемы, возникающие в процессе землепользования, в частности деградация земель, ухудшение мелиоративного состояния и случаи нецелевого использования, а также обоснованы правовые пути их устранения. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости модернизации земельного законодательства, усиления экологических требований и широкого внедрения цифровых технологий в систему управления земельными ресурсами.

Ключевые слова: Земельные ресурсы, землепользование, охрана земель, земельное право, Земельный кодекс, Конституция, земельные отношения, мониторинг земель, земельный кадастр, экологическая устойчивость, правовое регулирование, цифровизация.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the legal regulation of land use and land protection in the Republic of Uzbekistan. The study examines the role of land as a national asset, the legal foundations for its rational and efficient use, as well as regulatory and

legal mechanisms aimed at the protection of land resources. Based on the provisions of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Land Code, the legal framework for regulating land relations is analyzed. In addition, current issues arising in the process of land use, including land degradation, deterioration of meliorative conditions, and cases of misuse, are identified, and legal solutions for their elimination are substantiated. The results of the study indicate the necessity of modernizing land legislation, strengthening environmental requirements, and widely introducing digital technologies in land resource management.

Key words: Land resources, land use, land protection, land law, Land Code, Constitution, land relations, land monitoring, land cadastre, environmental sustainability, legal regulation, digitalization.

Kirish. Yer tabiat mahsuli sifatida paydo bo'lgan va inson ongi hamda irodasiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. U murakkab moddiy tizim sifatida ifodalanadi va yer to'g'risidagi tushunchaning turli- tuman mohiyatini o'z ichiga oladi.[1]

Yer xalq va davlat farovonligining tayanchi hisoblanadi. Yer qadimdan jamiyat rivoji va aholi farovonligining asosiy manbai hisoblanib, asosiy mulkchilik manbai hamdir. Shu sababdan biz yerdan unumli va samarali foydalanishimiz uni o'z holicha asrab avaylashimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish deganda biz Respublikamiz hududidagi har bir qarich yerni asrash undan oqilona va unumli foydalanish qolaversa kelajak avlodga o'z holicha meros qilib qoldirishni tushunamiz. Yerlardan unumli foydalanish va uni muhofaza qilishni tartibga solish uchun bir qancha qonun hujjatlari joriy etilgan bo'lib, bu bizga yerlarni huquqiy tartibga solish imkonini beradi. Hozirgi jadallashgan zamon tahlil natijalariga qaraydigan bo'lsak, yerlarning sifat holati avvalgiga nisbatan juda ham yomonlashganini anglashimiz mumkin. Yuqoridagi ko'ngilni hira qiluvchi holatlarni oldini olish uchun albatta yer bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish talab etiladi.

Yer — umummilliy boylik hisoblanadi. Davlat yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish kelajakda ekologik barqarorlik, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashish yo'nalishida rivojlanadi. Asosiy prognozlar – Yer kodeksining modernizatsiyasi, ekologik monitoringni kuchaytirish va yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirishdir. Kelajakda O'zbekistonda yerdan foydalanish va muhofaza qilish huquqiy tartibga solishning asosiy yo'nalishlari – ekologik barqarorlikni ta'minlash, raqamlashtirishni kengaytirish va xalqaro standartlarga moslashish bo'ladi. Bu jarayon fermerlar, davlat va jamiyat manfaatlarini muvozanatlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Dunyoning rivojlangan davlatlari bilan bir qatorda O'zbekiston ham „Yer resurslarini boshqarish, uni muhofaza qilish, yer bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish “ sohalari rivojlanishida yetakchilik qilmoqda. Buning asosiy sababi yurtimizda faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilarimizning, iqtisodchi olimlarimizning bu sohalar rivojida olib borayotgan izlanishlari natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yer bilan bog'liq munosabatlar barqarorligi uchun ter to'kayotgan olimlar sifatida biz Q.A.Choriyev, A.R. Bobojonov, M.R. Mirzaabdullayeva, A.M. Muqumov, F.R. Hamidov, G.SH. Uzoqova [1,2,3,4] kabi va boshqa professor o'qituvchilarimizni aytishimiz mumkin. Biroq jadallik bilan rivojlanayotgan dunyoda yer bilan bog'liq holda sodir bo'layotgan munosabatlar natijasi hali hamon yer bilan bog'liq muammolarning to'liq bartaraf etilmaganligini anglatadi. Bundan kelib

chiqadiki yer bilan bog'liq munosabatlar yana bir qancha yechimlarga muhtoj. Ya'ni yer egaligi, yerdan foydalanishda mavjud muammolarni bartaraf etishning murakkabligi, institutsional o'zgarishlarning juda tez sur'atlarda amalga oshirilishi, yer resurslarini boshqarish va yer munosabatlarini rivojlantirish yetarli darajada ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlanmaganligi kabilarni o'z ichiga oladi.[2] Yuqoridagi muammolarni oz fursatda, butunlay oldini olish mumkin bo'lmasada, qisman yer bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun yer bilan bo'layotgan munosabatlarni huquqiy tartibga solish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish masalalarini ilmiy asosda yoritish maqsadida umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodi orqali yer munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarining mazmuni o'rganildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi.

Taqqoslash metodi yordamida O'zbekiston yer qonunchiligining ayrim normalari o'zaro ko'rib chiqildi va solishtirildi va ularning ijobiy jihatlari aniqlab olindi. Shuningdek, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari asosida yer resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar aniqlanib, ularni huquqiy jihatdan bartaraf etish yo'llari asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Yer kodeksi, yerga oid qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, sohaga oid ilmiy adabiyotlar asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yerning umummilliy boylik sifatida e'tirof etilishi, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish davlat tomonidan huquqiy jihatdan kafolatlangan. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Yer kodeksi normalarida o'z ifodasini topgan.

Asosiy Qonunimiz O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yer huquqining asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (30.04.2023) yangi tahririda yerga oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoida-talablar ham belgilangan bo'lib, yer huquqi manbalarining poydevorini tashkil etadi. Asosiy qonunimizning 62, 66, 68, 109 va 115-moddalarida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanish bilan bog'liq yerga oid huquqiy qoida-talablar mustahkamlangandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (30.04.2023) 68-modda.

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.[3]

Yer bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati bu O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi 1-moddasi Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni

muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylilikni mustahkamlashdan shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.[4]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda yer resurslaridan foydalanishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda yerlarning degradatsiyaga uchrashi, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, yer uchastkalaridan maqsadsiz foydalanish holatlari uchramoqda. Ushbu muammolar, asosan, yerga bo'lgan munosabatlarda huquqiy ong va mas'uliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq.

Olib borilgan tahlillar natijasida yer bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samaradorligi ko'p jihatdan nazorat mexanizmlarining kuchliligi, raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishi hamda yer monitoringi tizimining rivojlanganligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. So'nggi yillarda yer kadastr, geoaxborot tizimlari va elektron monitoring tizimlarining joriy etilishi yer resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun yer qonunchiligini zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish, ekologik talablarni kuchaytirish hamda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquqiy mas'uliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish tizimi izchil rivojlanib bormoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etish va yer resurslarini kelajak avlodlar uchun asrab qolish maqsadida ushbu sohada huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi, amaldagi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri, amaldagi tahrir.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari to'plami. – Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid hujjatlar.
4. Choriyev Q.A. Yer huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
5. Bobojonov A.R. Yer resurslarini boshqarish va muhofaza qilish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
6. Mirzaabdullayeva M.R. Yer munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Muqumov A.M. Yer huquqining nazariy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2018.
8. Hamidov F.R. Yer resurslaridan samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlari. – Toshkent, 2020.
9. Uzoqova G.Sh. Yer kadastr va yer monitoringi tizimi. – Toshkent: Geoaxborot, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasi ma'lumotlari va rasmiy hisobotlari.